

**TOSHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI**

USMONOV SHAVKATJON SHUKUROVICH

**YASHIL IQTISODIYOT LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH
AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 - “Moliya, pul muomalasi va kredit”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025 yil

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
economical sciences**

Usmonov Shavkatjon Shukurovich

Yashil iqtisodiyot loyihalarini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish... 3

Усмонов Шавкатжон Шукурович

Совершенствование практики финансирования проектов зеленой
экономики..... 29

Usmonov Shavkatjon Shukurovich

Improving the practice of financing the green economy projects..... 57

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 62

**TOSHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI**

USMONOV SHAVKATJON SHUKUROVICH

**YASHIL IQTISODIYOT LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH
AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 - “Moliya, pul muomalasi va kredit”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025 yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Iqt4141 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi v.tiu.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan

Ilmiy maslahatchi:

Bozorov Akmal Amonovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar

Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xusainov Shavkat Abdushukurovich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:


O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Tashkent International University huzuridagi DSc.22/29.12.2023.I.175.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "23" 05 kuni soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7 uy. Tel.: (99895)131-55-55; faks: (99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz.

Dissertatsiya bilan Tashkent International Universityning Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (54 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7. Tel.: (99895) 131-55-55; faks: (99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "28" 04 kuni tarqatildi.

(2025-yil "15" 03 dagi 12 raqamli reyestr bayonnomasi).



[Handwritten signature]

N.X. Jumayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

[Handwritten signature]

A.T. Absalamov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

[Handwritten signature]

D.A. Raxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TOSHKENT XALQARO UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

20

No

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va moliyalashtirishga ko‘plab mamlakatlarda alohida e‘tibor berib kelinmoqda. “Yashil iqtisodiyotga o‘tish indeksida (Global Green Economy Index-GGEI) butun dunyoda yashil iqtisodiyot samaradorligi baholanadi. Mazkur indeksni baholashda to‘rtta asosiy yo‘nalishda iqlimni boshqarish va o‘zgarishi, sektorlar samaradorligi, bozor va investitsiyalar hamda atrof muhit kabi mezonlardan foydalaniladi. 2023 yilda 154 ta davlat yashil iqtisodiyot indeksiga ega bo‘lib, Afrikadan 41 ta, Osiyodan 44 ta, Evropadan 39 ta davlat indeksga ega bo‘lgan. Qitalar bo‘yicha evropa mamlakatlari o‘rtacha 60-80 ball oralig‘ida indeksga ega bo‘lgan bo‘lsa, 20-40 ball oralig‘ida Osiyo va Afrika mamlakatlariga to‘g‘ri keladi. Yashil iqtisodiyotga o‘tish indeksida Shvetsariya 77,14 ball, Germaniya 74,7 ball, Fransiya 68,69 ball, Xitoy 68,12 ball, Singapur 51,83 ball, Rossiya 60,19 ball, Qirg‘iziston 55,43 ball, Qozog‘iston 54,78 ball, Tojikiston 51,54 ball va O‘zbekiston 38,66 ball ko‘rsatkichiga ega bo‘gan”¹. “Yashil iqtisodiyot indeksi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda asosiy e‘tibor qayta tiklanadigan energiya manbalarini qo‘llashni rag‘batlantirish, issiqxona gazlari emissiyasini qisqartirish va uglerod chiqindilarini kamaytirish maqsadida, turli xil moliyaviy va fiskal mexanizmlarni keng qo‘llamoqdalar. Asosan, fiskal va moliyaviy rag‘batlantirish sifatida tariflar, grantlar, subsidiyalar, kreditlar va yashil soliqqa tortish kabi mexanizmlarni o‘z ichiga oladi”².

Dunyo amaliyotida barqaror va yashil moliyalashtirish tashabbuslarini rivojlantirish, iqlim o‘zgarishi, yashil energetika, ekologik loyihalar bilan bog‘liq muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan investitsion bo‘shliqni to‘ldirishga va moliyalashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarga e‘tibor qaratilmoqda. Yashil iqtisodiyotga o‘tishda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanish, energiyani tejaydigan texnologiyalarni rivojlantirishga investitsiyalarni jalb etish va yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish mexanizmini rag‘batlantirish kabi yo‘nalishlarda, shuningdek, yashil iqtisodiyotni soliq imtiyozlari orqali rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash sohasida yashil soliq siyosatining iqtisodiy va ekologik ta‘sirini o‘rganish, davlatlar va mintaqalar miqyosida yashil iqtisodiyotga o‘tish uchun soliq mexanizmlarining samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda uglevodород energiya resurslaridan (neft, gaz, ko‘mir) foydalanishi oqibatida har yili YaIMning 4,5 % ga yaqin qismini yo‘qotmoqda. “Bundan tashqari, energiya resurslarini ishlab chiqaruvchi quvvatlarning yarmiga yaqini eskirgan bo‘lib, ularni modernizatsiya qilish uchun katta miqdorda mablag‘lar talab etiladi”³. Ekspertlarning baholashicha, muqobil energiya hisobiga O‘zbekiston energiya ishlab chiqarishni qoplashi va talabni qondirishi mumkin. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasidan kelib chiqib, uzoq muddatli barqaror

¹ <https://ggindex-simtool.gggi.org/>

² PBL_2013-Environmental-taxes-and-Green-Growth_1009.pdf

³ Абдурахманов К.Х. Искусственный интеллект – основа устойчивого развития экономики.-Москва: ФГБОУ ВО «РЭУ им.Г.В.Плеханова», 2023.-432 с.

iqtisodiy o‘shishni taminlash uchun tashqi va ichki tasirlarga moslashuvchan o‘rta va uzoq muddatli fiskal siyosat olib borish maqsad qilingan”⁴. BRMni moliyalashtirish va “Yashil” loyihalarni qo‘llab-quvvatlash borasidagi islohotlarni jadallashtirish maqsadida, “yashil” budjetlashtirish islohotlari doirasida iqlim budjetini tasniflash modelini to‘liq joriy etish, xarajatlarini “yashil” budjetlashtirish tamoyillari asosida tasniflash uslubiyoti va mexanizmini takomillashtirish, xarajatlarni “yashil” budjetlashtirish tamoyillari asosida tasniflash, budjetni “yashil” tasniflash jarayonlarini avtomatlashtirish va dasturiy ta’minotga integratsiyalash, fiskal siyosat orqali davlat tomonidan “yashil” iqtisodiyotning barqaror o‘shishini qo‘llab-quvvatlash, yashil soliqqa tortish va uni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi⁵. Ushbu belgilangan vazifalarning ijro etilishi yashil loyihalarni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish zaruratini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston — 2030 strategiyasi to‘g‘risida”, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2025 yil 30 yanvardagi PF-16-son “O‘zbekiston — 2030 strategiyasini “Atrof muhitni asrash va “Yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2019 yil 4 oktabrdagi PQ-4477-son “2019 — 2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022 yil 9 sentyabrdagi PF-220-son “Energiya tejevchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022 yil 2 dekabrda PQ-436-son “2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari va moliyalashtirish mexanizmiga oid muammolar xorijlik iqtisodchi olimlardan C.Adolf, N.Bogovic, R.Karri, B.Özkaynak, Friesenbichler, A.C. Pigou, M.Cardona⁶, Hindistonlik olimlar Verma va Kandpal, eronlik iqtisodchi professor

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi «O‘zbekiston — 2030 strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-158-son Farmoni

⁵ <https://api.mf.uz/media/filestore/Fiskal%20strategiya%202025-2027.pdf> . 2025–2027-yillarga mo‘ljallangan Fiskal strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.

⁶ Adolf C., Röhrig K. Green Taxes As a means of financing the EU budget: policy options // The Greens/European Free Alliance. October 2016. 76 p.; Bogovic.N., Grdic.Z.: Transitioning to a green economy—possible effects on the croatian economy. Sustainability (Switzerland) 2020. 12(22) 1-19. p.; Rama Rao Karri, Mohammad Hadi Dehghani. Scientometrics and overview of water, environment, and sustainable development goals, in Water, The Environment, and the Sustainable Development Goals, 2024.; Michel Cardona | Maria Eduarda Berenguer. What role for financial regulation to help the low-carbon transition? Paris, 2020. P-15-17.; Begüm Özkaynak.

Mohammad Hadi Dehghani⁷, ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

MDH mamlakatlari olimlaridan yashil iqtisodiyoti va moliyalashtirish mexanizmining tasniflanishi, shuningdek tizimdagi bugungi kunda mavjud muammolar tahlili, boshqa nazariy va ilmiy jihatlar va shu kabi masalalar S.N.Bobilyov, M.A.Egorova, Ye.A.Ermakova, A.A.Sitnik, A.R.Salyaxova, B.N.Porfirev, A.A.Prudnikova, Ye.B.Shuvalova⁸ ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish muammolari o'zbekistonlik iqtisodchi olimlar K.X.Abduraxmanov, M.T.Asqarova, A.V.Vahabov, N.X.Jumayev, D.I.Ruziyeva, Sh.Sh.To'rayev, N.K.Komilova, A.A.Bozorov, E.I.Nosirov, S.Po'latova, B.B.Valiyev, S.Elmirzayev va N.Shavkatovlar tomonidan tadqiq etishgan⁹.

Ushbu mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarga qaramasdan, aynan yashil loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari kompleks va tizimli tarzda to'liq o'rganilmagan. Mazkur holat dissertatsiya ishida tadqiq etilgan ilmiy-amaliy muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va

Environmental justice, climate justice, and the green economy, in Handbook of Green Economics, 2019; Pigou A. C. The Economics of Welfare. 3th ed. London : Macmillan, 1920. URL: <http://pombo.free.fr/pigou1920>.

⁷ Rama Rao Karri, Mohammad Hadi Dehghani. Scientometrics and overview of water, environment, and sustainable development goals, in Water, The Environment, and the Sustainable Development Goals, 2024; Begüm Özkaynak. Environmental justice, climate justice, and the green economy, in Handbook of Green Economics, 2019

⁸Бобылёв С. Н. Устойчивое развитие: парадигма для будущего // Мировая экономика и международные отношения. 2017. Т. 61. № 3. С. 107–113.; Порфирьев Б.Н. и др. Зеленая экономика и зеленые финансы: учебное пособие / Под ред. акад. Б.Н.Порфирьева.–СПб.: Изд-во «МБИ», 2018.–327 с.; Прудникова А.А. Зеленое финансирование для достижения целей устойчивого развития: современное состояние и перспективы. Экономика. Налоги. Право. 2023;16(3):16-23. ; Салыхова А. Р. Роль и значение трансграничного углеродного налога в ЕС и России. Правовой энергетический форум. 2022;(2):36–42.; Ситник А. А. «Зеленые» финансы: понятие и система // Актуальные проблемы российского права. -2022. -Т. 17. — № 2. — С. 63–80.; Егорова М.А. Основные направления правового регулирования «зеленого» налогообложения для целей предпринимательской деятельности: опыт зарубежных стран // Актуальные проблемы российского права. — 2022.-Т. 17.- № 7.- С. 71–79. ; Ермакова Е. А., Тюпакова Н. Н. Комплексная классификация экологических налогов // Вестник Саратова; Шувалова Е.Б., Гордиенко М.С., Сибатуллина Н.В. Эволюция системы экологических налогов, сборов и платежей в Российской Федерации [Evolution of the system of environmental taxes, fees and payments in the Russian Federation]. Статистика и экономика, 2017, № 6, 32-38-с.

⁹Абдурахманов К.Х. Искусственный интеллект – основа устойчивого развития экономики.-Москва: ФГБОУ ВО «РЭУ им.Г.В.Плеханова», 2023.-432 с.; А.В.Вахабов, Ш.Х.Хажикабиев ва бошқалар. Яшил иқтисодиёт: Дарслик. –Тошкент.: “Universitet”, 2020. -262 б.; Жумаев Н. Рақамли иқтисодиёт ва рақамли тадбиркорликни ривожлантириш истикболлари //Направления развития благоприятной бизнес-среды в условиях цифровизации экономики. – 2022. – Т. 1. – №. 01. – С. 34-36.; D.I.Ruziyeva “Кичик бизнес субъектларида инвестиция фаолиятини ташкил этиш методологиясини такомиллаштириш” doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati; Тўраев Шавкат Шухратович. “Ўзбекистон Республикаси бюджет-солиқ сиёсатининг устувор йўналишлари.” Innovations in Technology and Science Education 2 (2023): 25-33.; N.K.Komilova “Yashil iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirishning xorij tajribasi: nazariya, amaliyot”. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024-yil, dekabr. №12-son. 1023-1028b.; A.A.Bozorov “O‘zbekistonda jismoniy shaxslarni soliqqa tortish metodologiyasini takomillashtirish” nomli Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha fan doktori dissertatsiya ishi.; E.I.Nosirov ““Yashil” obligatsiyalarni muomalaga chiqarishning nazariy va amaliy jihatlar”. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2023-yil, oktyabr. №10-son. 40-45b.; Po'latova S. (2023). Yashil moliya tushunchasi va uning xalqaro moliya tizimidagi o'rni. В ZDIFT (Т. 2, Выпуск 21, сс. 97–99). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10073940>.; Б.Б.Валиев. Яшил иқтисодиёт. Дарслик. –Тошкент.: “PUBLISHING HIGH FUTURE”, 2024. -252 б.; М.Т.Асқарова ва бошқалар. Yashil Iqtisodiyot. Darslik.- Т.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2022. - 312 б.; Элмирзаев С., Шавкатов Н. “Яшил” иқтисодиётни ривожлантиришда давлатхусусий шериклик механизмларидан фойдаланиш масалалари // Экономика и финансы (Узбекистан). 2023. №7 (167).

tavsiyalarning dolzarflik darajasini belgilab beradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining 2022-2027 yillarda Ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 2.6 "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning ilmiy va metodologik asoslari" mavzusi bilan bog'liq holda bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Yashil iqtisodiyotning mohiyati va tarkibiy tuzilishiga oid konseptual asoslarni o'rganish hamda nazariy yondashuvlarni tadqiq etish;

Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish mexanizmlari va uni amalga oshirish asoslarini tadqiq etish;

Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishni rag'batlatirishda soliq instrumentidan foydalanish yuzasidan nazariy yondashuvlarni ochib berish;

Milliy iqtisodiyotda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning joriy holatini tahlil qilish va yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishning zamonaviy tendensiyalarini baholash;

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish zaruriyati va uni rivojlantirishning ustuvor vazifalarini tadqiq etish;

Xalqaro amaliyotda yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish tendensiyalarini tahlil qilish va ilg'or xorijiy tajribadan foydalanishning ustuvor yo'nalishlari aniqlash;

Milliy iqtisodiyotda yashil ishlab chiqarishni rag'batlantirishning moliyaviy dastaklaridan foydalanish yo'llarini tadqiq etish yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni tizimlashtirishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni soliq instrumentlari orqali moliyalashtirish mexanizmi tanlangan.

Tadqiqotning predmetini O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotni soliq instrumentlari orqali moliyalashtirish jarayonlarida yuzaga keladigan moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsion tadqiqot jarayonida to'plangan statistik ma'lumotlarni qayta ishlash, analiz va sintez, ilmiy abstraksiya, qiyosiy tahlil qilish, guruhlash hamda statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

umumiy quvvati 100 kVtgacha bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatgan jismoniy va yuridik shaxslarni ushbu qurilmalar bo'yicha mol-mulk solig'i, yer solig'i hamda umumiy tarmoqqa sotgan elektr energiyasi uchun olgan foydasi bo'yicha foyda solig'ini to'lashdan ozod qilish taklif etilgan;

jismoniy shaxslar tomonidan o'rnatilgan quyosh panellarida ishlab chiqarilgan va o'z iste'molidan orttirib yagona elektr energetika tizimiga uzatilgan elektr energiyasining hajmidan kelib chiqib Davlat budjetidan subsidiya ajratish va "Soliq" mobil ilovasi orqali to'lab berilishi taklif etilgan;

energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to'liq uzib qo'yilgan turar joylarda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanuvchi jismoniy shaxslarni mol-mulk solig'i va yer solig'idan ozod qilish ilmiy asoslangan;

nominal quvvati 0,1 MVt va undan ortiq bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatganlik uchun, hamda uskunalar egallagan yer uchastkalari bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i va mulk solig'dan ozod qilish lozimligi ilmiy asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan elektr energiyasi ishlab chiqaruvchilar va ularning xaridorlarini ro'yxatdan o'tkazish, "yashil moliyalashtirish" mexanizmlarini amaliyotga tadbiiq etish va "yashil energiya" sertifikatlarini muomalaga chiqarish, ularning savdosini onlayn platforma orqali amalga oshirish tartibini ishlab chiqish bo'yicha taklifli zarurligi asoslangan;

jismoniy shaxslarga tegishli obyektlarda o'rnatilgan quyosh panellarida ishlab chiqarilgan va o'z iste'molidan orttirib yagona elektr energetika tizimiga uzatilgan elektr energiyasi uchun budjetdan subsidiya ajratish va subsidiya to'lovlarini jismoniy shaxslarning jami daromadlari tarkibiga kiritmaslik taklifi asoslangan;

qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar qayta tiklanadigan energiya manbalari o'rnatilgan oydan e'tiboran uch yil muddatga jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i va yer solig'idan ozod qilish taklif etilgan;

"yashil moliyalashtirish" mexanizmlarini amaliyotga tadbiiq etish va "yashil energiya" sertifikatlarini muomalaga chiqarish, ularning savdosini onlayn platforma orqali amalga oshirish zarurligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot ishini tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo'llanilgan yondoshuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, mamlakat va xorijiy olimlarning ekspert baholari va ishlanmalaridan foydalanilganligi hamda xulosa va takliflarning amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirishga oid nazariy-metodologik va budjet tizimiga oid maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish yuzasidan qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari, dasturlar, yo'l xaritalari va chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishda hamda yashil budjetni tashkil etishda yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish masalalari bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida:

umumiy quvvati 100 kVtgacha bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatgan jismoniy va yuridik shaxslar ushbu qurilmalar bo'yicha

mol-mulk solig'i, yer solig'i hamda umumiy tarmoqqa sotgan elektr energiyasi uchun olgan foydasidan hisoblanadigan foyda solig'ini to'lashdan ozod etishga doir taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023 yil 16 fevraldagi PQ-57-sonli Qarorni ishlab chiqishda foydalanilgan va to'qqizinchi bandida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2024 yil 16 yanvardagi 15-04572 -son ma'lumotnomasi). Natijada, qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatgan jismoniy va yuridik shaxslar ihtiyorida yiliga o'rtacha 53,4 mlrd so'm mablag' qolishiga erishiladi.

jismoniy shaxslar tomonidan o'rnatilgan quyosh panellarida ishlab chiqarilgan va o'z iste'molidan orttirib yagona elektr energetika tizimiga uzatilgan elektr energiyasining hajmidan kelib chiqib Davlat budjetidan subsidiya ajratish va "Soliq" mobil ilovasi orqali to'lab berish mexanizmi bo'yicha taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023 yil 16 fevraldagi PQ-57-sonli Qarornini ishlab chiqishda foydalanilgan va o'n beshinchi bandida o'z aksini topgan topgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2024 yil 16 yanvardagi 15-04572-son ma'lumotnomasi). Natijada, jismoniy shaxslar tomonidan davlatga ortiqcha elektr energiyasini sotish orqali qo'shimcha daromad qilish imkoniyati yaratildi.

energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to'liq uzib qo'yilgan turar joylarda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanuvchi jismoniy shaxslarni mol-mulk solig'i va yer solig'idan ozod qilish taklifi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 436 va 421 moddalarida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2024 yil 16 yanvardagi 15-04572-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida jismoniy shaxslarga qo'shimcha soliq imtiyozi berilishi orqali yashil iqtisodiyotni rag'batlantirishga erishilgan.

nominal quvvati 0,1 MVt va undan ortiq bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatganlik uchun, hamda uskunalarni egallagan yer uchastkalari bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i va mulk solig'dan ozod qilishga doir taklifi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 414 va 428 moddalarida inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2024 yil 16 yanvardagi 15-04572-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida tadbirkorlik subyektlariga qo'shimcha imtiyoz va qulay shart-sharoitlar yaratishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-amaliy konferentsiyalarda, jumladan 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi doirasida jami 14 ta ilmiy ishlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya etilgan jurnallarda 9 ta

ilmiy maqolalar, jumladan 2 ta xorijiy va 7 ta respublika jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tayyorlangan dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 165 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti hamda predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi, tadqiqotning usullari va ilmiy yangiligi yoritilgan, tadqiqotning amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati hamda tadqiqot natijalarining joriy qilinishi ifodalangan.

Dissertatsiyaning **“Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishga oid ilmiy nazariya va tamoyillar”** deb nomlangan birinchi bobida yashil iqtisodiyot tushunchasining mohiyati va tarkibiy tuzilishiga oid konseptual asoslar, yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishning mohiyati va uni amalga oshirish jihatlari, yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishni rag'batlatirishda soliq instrumentidan foydalanish yusasidan nazariy yondashuvlar yoritib berilgan.


Yashil moliyaviy munosabatlarda bir qator tushunchalarning mohiyatiga e'tibor qaratildi. Jumladan, yashil iqtisodiyot tushunchasi atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda barqaror rivojlanishni ta'minlovchi iqtisodiyotni anglatadi. Yashil budjetlashtirish esa budjet xarajatlarini iqlim o'zgarishlariga qarshi choralarga yo'naltirishni nazarda tutuvchi budjet jarayoni hisoblanadi.

“Yashil” davlat moliyaviy boshqaruvi esa davlat moliyasini boshqarish jarayonlari va tizimlarini (ayniqsa, budjet jarayoni) iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish choralari bilan uyg'unlashtiruvchi tizimni aks ettiradi. Bunda yashil audit vazirlik va idoralarga budjetdan “yashil maqsadlar” mablag'lardan baholash tizimini ifodalaydi. “Yashil” markirovkalash jarayoni esa budjet xarajatlarining atrof muhitga ijobiy, salbiy yoki neytral jihatdan ta'sirini tasniflashni ifodalaydi. Yashil o'sish, iqtisodiy o'sish va rivojlanishga qaratilgan davlat siyosati, tabiiy boyliklarni samarali va ehtiyotkor foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va inson farovonlik darajasini oshirishni maqsad qiladi.

Yashil moliyalashtirishning muhim rag'batlantiruvchi omili bu soliq instrumenti hisoblanadi. Yashil soliqlar yoki ekologik soliqlar atrof-muhitning buzilishi yoki zararlanishiga sabab bo'luvchi faoliyat uchun olinadigan yig'imlardir. Ushbu soliqlar “Ifloslovchi to'laydi” tamoyiliga asoslanadi, bunda ifloslanish uchun mas'ul bo'lgan tashkilotlar tegishli xarajatlarni o'z zimmalariga oladilar va xarajatlarni o'zlarining tovarlari va xizmatlari narxlariga kiritadilar.

So'nggi o'n yil ichida “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi ko'plab hukumatlar va hukumatlararo tashkilotlarning strategik ustuvor yo'nalishi sifatida e'tiborga sazovor bo'ldi. Bu davrda o'rmonlarni kesish, resurslarning kamayishi, aholining haddan tashqari ko'payishi, iqlim o'zgarishi va ozon qatlamining yemirilishi kabi

muammolarni hal qiluvchi ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlarning ahamiyati oshirildi. 1-rasmda qisqacha qilib yashil iqtisodiyot rivojlanish bosqichlari hamda bu davrlarda ishlab chiqilgan kelishuvlar keltirildi. Yashil iqtisodiyotning evolyutsiyasi ekologik muammolardan xabardorlikni oshirish va barqarorlik tamoyillarini iqtisodiy amaliyotga integratsiya qilishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish bilan belgilandi. Ushbu davom etayotgan evolyutsiya iqtisodiy o‘shishni atrof-muhitni muhofaza qilish va resurslar samaradorligini muvozanatlash muhimligining tobora ortib borayotgan e’tirofini aks ettiradi.



1-rasm. Yashil iqtisodiyot rivojlanishining to‘rt asosiy bosqichlari¹⁰

“Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi butun dunyo bo‘ylab mamlakatlarning o‘ziga xos rivojlanish siyosatida muhim sohaga aylandi. Yashil iqtisodiyotga o‘tish, ya’ni maxsus yashil iqtisodiyot siyosatini amalga oshirish rivojlangan mamlakatlarda barqaror rivojlanishni rag‘batlantirishga xizmat qilishi va bir vaqtning o‘zida Yevropada Yashil kelishuvining strategik maqsadlarini amalga oshirishga hissa qo‘shishi mumkin”, deb xulosa qiladi Yevropalik iqtisodchi olim Bogovich o‘z taqiqotida¹¹.


“Yashil iqtisodiyot turli tarmoqlarni o‘z ichiga oladi, bunda qayta tiklanadigan energiya va barqaror qishloq xo‘jaligi asosiy yo‘nalishlar sifatida ta’kidlanadi. Quyosh, shamol, gidro va geotermal energiya kabi qayta tiklanadigan energiya manbalari an’anaviy fotoalbom yoqilg‘ilarga ekologik toza alternativ hisoblanadi”, deydi o‘z taqiqotida eronlik iqtisodchi professor Mohammad Hadi Deghani¹².

Quyidagi 2-rasm ma’lumotlari orqali yashil iqtisodiyot rivojlanishining asosiy xususiyatlarini ko‘rishimiz mumkin.

¹⁰ Ilmiy taqiqotlar asosida dissertant tomonidan ishlab chiqilgan.

¹¹ Bogovic.N., Grdic.Z.: Transitioning to a green economy—possible effects on the croatian economy. Sustainability (Switzerland) (2020) 12(22) 1-19. p-4-6.

¹² Rama Rao Karri, Mohammad Hadi Deghani. Scientometrics and overview of water, environment, and sustainable development goals, in Water, The Environment, and the Sustainable Development Goals, 2024



2-rasm. Yashil iqtisodiyot rivojlanishining asosiy xususiyatlari¹³

Hindistonlik olimlar Verma va Kandpal o'z taqdiqotida "yashil iqtisodiyot" va "barqaror rivojlanish" atamaları o'rtasidagi munosabatlar muhokama qiladi. Ularning izohlashiga qaraganda, ushbu atamalar ko'pincha atrof-muhit resurslarini saqlashning umumiy maqsadi uchun bir-birining o'rnida ishlatiladi. Bu ikki terminlarning umumiy maqsadlariga qaramasdan, ushbu ikki tushuncha o'rtasidagi farqlar ta'kidlanadi. "Barqaror rivojlanish iqtisodiyot uchun muhim bo'lgan turli investitsiyalar va texnologik innovatsiyalarni o'z ichiga olgan, tabiiy va inson tomonidan yaratilgan kapitalga qaratilgan kengroq tushuncha sifatida tasvirlangan", deya izohlaydi ular.

Uglerod chiqindilarini kamaytirish uchun qo'llaniladigan strategiyalar ko'p qirrali bo'lib, moliyaviy va fiskal mexanizmlarni, axborot va ta'lim siyosatini, siyosatni qo'llab-quvvatlashning turli shakllarini, tartibga solishni yaxshilashni,

¹³ Ilmiy tadqiqotlar asosida dissertant tomonidan ishlab chiqilgan.

tadqiqot va ishlanmalarga qaratilgan tashabbuslarni va ixtiyoriy asoslarni o'z ichiga oladi. Asosan, fiskal va moliyaviy rag'batlantirish eng keng tarqalgan va keng qo'llaniladigan vositalar sifatida paydo bo'ladi, ular o'z ichiga tariflar, grantlar, subsidiyalar, kreditlar va soliqqa tortish kabi mexanizmlarni o'z ichiga oladi¹⁴.

Eng samarali ekologik soliq islohotlari 1990-yillarda va 2000-yillarning boshlarida Buyuk Britaniya va Shvetsiyada amalga oshirilgan. Masalan, 1996 yilda Buyuk Britaniyada chiqindilarni qayta ishlashning barqaror usullarini joriy etishni rag'batlantirish asosiy maqsadi bo'lgan rasmiy chiqindilarni qayta ishlash maydonlarida chiqindilarni yo'q qilish uchun soliq joriy etildi. Shvetsiya tajribasi birinchi bo'lib ekologik soliq islohotida byudjet (fiskal) betarafligining oqilona ustuvor yo'nalishini ko'rsatdi.

Yevropa atrof-muhit agentligi 2012-yilda Yevropa hukumatlari ekologik soliqlarni strategik tarzda amalga oshirish va keyinchalik ishlab chiqarilgan daromadlarni iqtisodiyotga qayta taqsimlash orqali daromad solig'ini bir vaqtning o'zida kamaytirish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va ifloslanishni yumshatish imkoniyatiga ega ekanligini ta'kidladi¹⁵. 2020 yil oktyabr oyida Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) blog postida sinchkovlik bilan ishlab chiqilgan soliq siyosati yashil rag'batlantirish sa'y-harakatlarini kuchaytirishga xizmat qilishini va bir vaqtning o'zida an'anaviy rag'batlantirish yondashuvi shakllarini dekarbonizatsiya siyosatining asosiy maqsadi bilan uyg'unlashtirishini ta'kidladi¹⁶.

Ekologik soliqlar vaqti-vaqti bilan Pigou soliqlari deb ham talqin etiladi. Ushbu termin ingliz professori A.C. Pigou (1920) nomiga atalgan. Pigou solig'i salbiy tashqi ta'sirlarni keltirib chiqaradigan tijorat yoki ishlab chiqarish korxonalariga solinadi. Yashil iqtisodiyot nuqtai nazaridan tashqi ta'sirlar bozor narxlarida hisobga olinmagan xarajatlar yoki foyda sifatida tavsiflanadi. Ijobiy tashqi ta'sirlar foydalarni bildiradi, salbiy tashqi ta'sirlar esa "ijtimoiy xarajatlar" deb atalib, ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarining ekologik oqibatlariga sabab bo'ladi¹⁷. Iqtisodchi olimlar amerikalik V.Baumol va Shvetsiyalik V.Oates larning xulosalariga ko'ra, "Pigou yondashuviga ko'ra, birlik soliqlari yoki subsidiyalar tashqi ta'sirlarni keltirib chiqaradigan faoliyatga qo'yiladi, soliq darajasi muayyan faoliyat natijasida yetkazilgan marjinal sof zararga tenglashtiriladi. Buning mantiqiy sababi shundaki, agar ushbu soliqlar (yoki subsidiyalar) to'g'ri aniqlansa, ular ijtimoiy xarajatlarni shaxsiy xarajatlar bilan moslashtirib, tashqi ta'sirlar bilan bog'liq salbiy ta'sirlarni yumshatib, Pareto-samarali faoliyat darajasiga olib keladi"¹⁸.

¹⁴ PBL_2013-Environmental-taxes-and-Green-Growth_1009.pdf


¹⁵ EEA (2012) Environmental tax reform: increasing individual incomes and boosting innovation, <https://www.eea.europa.eu/highlights/environmental-tax-reform-increasing-individual>

¹⁶ OECD (2020) Green budgeting and tax policy tools to support a green recovery, <https://www.oecd.org/coronavirus/policyresponses/green-budgeting-and-tax-policy-tools-to-support-a-green-recovery-bd02ea23/>

¹⁷ Pigou A. C. The Economics of Welfare. 3th ed. London : Macmillan, 1920. URL: <http://pombo.free.fr/pigou1920.pdf>

¹⁸ William J. Baumol and Wallace E. The Use of Standards and Prices for Protection of the Environment. Source: The Swedish Journal of Economics, Vol. 73, No. 1, Environmental Economics, (Mar., 1971), pp. 42-54 <https://www.sfu.ca/~wainwrig/Econ400/documents/Baumol-Oates-SwedishEconJnl71.pdf>

Evropa Ittifoqiga a'zo davlatlar orasida Lyuksemburg energiya solig'i daromadlarining eng katta ulushiga ega bo'lib, 53,3% ni tashkil qiladi. Ushbu soliq birinchi navbatda norezidentlardan benzin va dizel yoqilg'isi sotib olish orqali undiriladi. Shuni ham ta'kidlash joizki, Maltada norezidentlar mamlakat soliq tushumlariga katta hissa qo'shmoqda, ularning ulushi 34,8% ni tashkil qiladi. Xizmatlar (shu jumladan transport va savdo) Yevropa Ittifoqining energiya solig'i daromadlarining 25,9 foizini tashkil qiladi. Ayniqsa, ushbu toifadagi yuqori ulushlar Xorvatiya va Slovakiyada kuzatilib, jumladan 40% dan oshdi. Ishlab chiqarish, qurilish, tog'-kon sanoati va kommunal xizmatlar Yevropa Ittifoqida energiya solig'i daromadlarining 23,2% dan ortig'ini tashkil etdi. O'rtacha hisobda uy xo'jaliklari tomonidan to'langan transport soliqlari to'lovlarning katta qismini (68,2%) tadbirkorlik sektori (30%) ga nisbatan ko'proq tashkil etadi. Buning sababi shundaki, Evropa Ittifoqida uy xo'jaliklari transport soliqlarining asosiy to'lovchilari hisoblanadi.



3-rasm. Yevropa mamlakatlari tomonidan joriy qilingan hamda qo'llab kelinayotgan yashil soliq turlari.

Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishga oid ilmiy nazariya va tamoyillar tahlili asosida aytish mumkinki, O'zbekiston qonunchiligiga yashil moliyalashtirish bilan bog'liq tushunchalarni kiritish lozim. Jumladan, Budget kodeksiga yashil moliyalashtirish, yashil budjetlashtirish, yashil audit, yashil markirovkalash tushunchalarini, Soliq kodeksiga esa yashil soliq tushunchasini kiritish maqsadga muvofiqdir. Energetika sohasida esa qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan elektr energiyasi ishlab chiqaruvchilar va ularning xaridorlarini

ro'yxatdan o'tkazish, "yashil moliyalashtirish" mexanizmlarini amaliyotga tadbiq etish va "yashil energiya" sertifikatlarini muomalaga chiqarish, ularning savdosini onlayn platforma orqali amalga oshirish lozim.


Dissertatsiya ishining **"Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va uni moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili"** deb nomlangan **ikkinchi bobida** milliy iqtisodiyotda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning joriy holati tahlili, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni soliq imtiyozlari orqali moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili hamda xalqaro amaliyotda yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish tendensiyalarining tahlili bayon etilgan.

Milliy iqtisodiyotimizda so'nggi yillarda YaIMning energiya sig'imi pasaymoqda, ammo dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biri bo'lib qolmoqda. 2024-yilda O'zbekiston energiya ehtiyoji bo'yicha dunyodagi sakkizinchi mamlakat bo'ldi. Energiya iste'molining taxminan 45% binolar, turar-joy va tijorat binolariga, 21% sanoatga, 18% esa transportga to'g'ri keladi.

O'zbekiston birlamchi energiya manbai sifatida tabiiy gaz, neft va ko'mir kabi qayta tiklanmaydigan energiya manbalariga yuqori darajada tayanadi. 2024 yilda qayta tiklanmaydigan qazib olinadigan yoqilg'i umumiy hajmining 85% tabiiy gaz, 9% neft va 4% ko'mirga to'g'ri keldi. Tabiiy gazdan foydalanish 1990 yildagi 63 mln tonnadan 2024 yilda 96,18 mln tonnagacha o'sdi va energiya iste'moli tarkibidagi ustun mavqeini saqlab qoldi.

Qayta tiklanadigan energiya manbalari (QTEM) bugungi kunda dunyo miqyosida eng ko'p e'tibor qaratilayotgan va istiqboli eng yorqin bo'lgan energetika sohaslaridan biridir. Yashil iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida qayta tiklanadigan energiya, energetika sohasidagi barqarorlikni ta'minlash, karbon izini kamaytirish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda asosiy omil bo'lib qolmoqda.

Quyidagi 4-rasm ma'lumotlari orqali O'zbekistonda umumiy elektr energiyasi tarkibida qayta tiklanadigan elektr energiyasining ulushini ko'rib tahlil qilshimiz mumkin.



4-rasm. O'zbekistonda umumiy elektr energiyasi tarkibida qayta tiklanadigan elektr energiyasining ulushi %¹⁹. (*2030 yil prognoz).

¹⁹ Manba: Statistika agentligi, 2024 yil

Yuqoridagi 4-rasm ma'lumotlariga ko'ra O'zbekistondagi qayta tiklanadigan energiya manbalaridan olingan elektr energiyasining umumiy elektr energiyasidagi ulushida 2013 yilda bugungi kunga qadar tebranuvchan tendensiyani kuzatish mumkin. Jumladan, 2013-2017-yillarda qayta tiklanadigan energiya ulushi bir oz o'zgarib turadi ya'ni 2013-yilda 10,5 foizni tashkil etgan bo'lib 2017-yilda 13 foizgacha ko'tarilib, yuqori darajaga chiqqan, lekin 2018-yilda keskin pasayib, 9,5 foizni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich 2020 va 2021-yillarda rekord darajada 7 foizgacha pasayishi kuzatilib, 2022-yilda yana jonlanish kuzatilgan. Shu tariqa tahlil qilinayotgan ko'rsatkich 2023 yilda 15 foizni 2024 yilda 17,2 foizni tashkil etmoqda. Mazkur ko'rsatkichning 2020 va 2021-yillarda keskin tushib ketishini COVID-19 pandemiyasining ta'siri bilan asoslash mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash lozimli, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijobiy islohotlar natijasida O'zbekistonda 2030-yilga qadar qayta tiklanadigan energiya (QTE) manbalari ulushini 25 foizgacha oshirish rejalashtirgan. Bu prognoz O'zbekistonning ekologik barqarorlikni ta'minlash va energiya sohasidagi mustaqillikni oshirish bo'yicha belgilangan maqsadlariga erishish uchun amalga oshiriladigan strategik harakatlarni ifodalaydi.

O'zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalarining rivojlanishi energiya mustaqilligini ta'minlash va ekologik barqarorlikni oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan bir qator muhim strategiyalarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Respublikada qayta tiklanadigan energiya loyihalariga qaratilgan sarmoyalar, davlat dasturlari va yangi texnologiyalarni joriy etish jarayonlari sezilarli o'zgarishlarga olib kelmoqda. Ushbu jarayon nafaqat energiya ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishga, balki atrof-muhitni himoya qilish, yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijobiy islohotlar natijasida so'nggi yillarda fuqarolarni arzon energiya manbalaridan foydalanishga rag'batlantirish va ularning energiya sarfini kamaytirish (tejash) maqsadida quyosh panellarini o'rnatish uchun subsidiyalar taqdim etish ishlari jadallashtirilmoqda.

Xorijiy mamlakatlar tajribasiga tayanib, O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatgan jismoniy va yuridik shaxslarga rag'batlantirish uchun soliq imtiyozlari va subsidiyalar berilishi belgilangan. Bu borada AQSh va Hindiston tajribasiga muvofiq jismoniy shaxslarga 3 yillik soliq imtiyozlaridan foydalanishi ham inobatga olingan. Shuningdek, yuridik shaxslar tomonidan qo'shimcha xarajat qilinganda foyda solig'idan imtiyoz berilishida AQSh (2032-yilgacha) va Hindiston (2030-yilgacha) tajribasi inobatga olingan.

Quyida keltirilgan 1-jadvaldagi ma'lumotlardan anglash mumkinki, Respublika miqyosida 2024 yil davomida o'rnatilgan quyosh panellari orqali ishlab chiqarilgan 12 182 090 kVt/s elektr energiyasi uchun 10 826 nafar jismoniy shaxslarga 12 182,1 million so'm miqdorida subsidiya ajratilgan. O'rnatilgan quyosh panellari orqali ishlab chiqarilgan elektr energiyasi uchun jismoniy shaxslarga Davlat budjetidan ajratilgan subsidiyalar bo'yicha Soliq qo'mitasi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining ma'lumotlariga tayanib hisob-kitoblarga ko'ra 2025 yilga prognoz va 2030 yil uchun mo'ljalli ko'rsatkichlar aniqlanib,

unga ko‘ra ajratiladigan subsidiya miqdori 2025 yilda 15 761,4 mln. so‘mni 2030 yilda 36 548,9 mln. so‘mni tashkil etishi mo‘ljallanmoqda.

1-jadval

O‘zbekistonda o‘rnatilgan quyosh panellari orqali ishlab chiqarilgan elektr energiyasi uchun jismoniy shaxslarga budjetidan ajratilgan subsidiya bo‘yicha 2024 yil ijrosi va 2025 yil prognozi hamda 2030 yil mo‘ljallari²⁰

t/r	Hudud nomi	2024 yil		2024 yil	2025 yil	2030 yil
		Subsidiya ajratilgan fuqarolar soni	kVt/s	Subsidiya summasi (mln. so‘m)	prognoz	mo‘ljal
Respublika bo‘yicha		10 826	12 182 090	12 182,1	15 761,4	36 548,9
1.	Qoraqalpog‘iston Res.	2 737	1 985 567	1 985,6	2382,7	5480,3
2.	Andijon viloyati	126	200 953	201,0	261,3	574,9
3.	Buxoro viloyati	666	785 680	785,7	1100,0	2640,0
4.	Jizzax viloyati	356	332 184	332,2	498,3	1146,1
5.	Qashqadaryo viloyati	505	781 180	781,2	937,4	2249,9
6.	Navoiy viloyati	800	608 008	608,0	790,4	1817,9
7.	Namangan viloyati	525	420 505	420,5	588,7	1354,0
8.	Samarqand viloyati	453	561 564	561,6	842,4	1853,3
9.	Surxondaryo viloyati	238	303 936	303,9	364,7	802,3
10.	Sirdaryo viloyati	383	385 434	385,4	501,0	1152,3
11.	Toshkent viloyati	753	813 842	813,8	1139,3	2620,4
12.	Farg‘ona viloyati	439	689 257	689,3	1034,0	2274,7
13.	Xorazm viloyati	2 045	2 868 740	2 868,7	3442,4	8261,9
14.	Toshkent shahri	800	1 445 240	1 445,2	1878,8	4321,1

O‘zbekistonda quyosh panellarini o‘rnatganlarga beriladigan soliq imtiyozlarini jahon tajribasiga mos keltirib subsidiyalarni jismoniy shaxslarni ijtimoiy himoyalash maqsadida 1kVt elektr energiya ishlab chiqarish narxiga nisbatan (2023-yilda 1 kVt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish tannarxi 895 so‘mni tashkil etgan) yuqoriroq hamda hisoblash uchun qulay miqdor – 1000 so‘m miqdorida belgilash maqsadga muvofiqligi asoslangan. Bu aholini quyosh panellarini o‘rnatishga qiziqtiradi hamda investitsiyalarni qisqa muddatda qoplash imkoniyatini beradi.

O‘zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalarini o‘rnatganligi uchun mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha imtiyozga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar va ularga qo‘llanilgan imtiyoz summalarining o‘zgarish tendensiyalarini quyidagi 2-jadval ma’lumotlari orqali ko‘rishimiz mumkin.

Quyida keltirilgan 2-jadval ma’lumotlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, tahlil qilinayotgan davrda mamlakat miqyosida qayta tiklanadigan energiya manbalarini o‘rnatganligi uchun mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha imtiyozga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar 242 nafarni tashkil etib, umumiy soliq imtiyozi summasi 233,4 mln. so‘mni tashkil etgan. Soliq imtiyozi yer solig‘i bo‘yicha 159,9 mln. so‘m (68,5 foiz)ni, mol-mulk solig‘i bo‘yicha esa 73,5 mln. so‘m (31,5 foiz)ni tashkil qilmoqda. Mahalliy soliqlar bo‘yicha imtiyozlar prognozi

²⁰ O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida dissertant tomonidan tayyorlangan

2-jadval

O‘zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalarini o‘rnatganligi uchun mol-mulk va yer solig‘idan imtiyozga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar va ularga qo‘llanilgan imtiyoz summalari hamda kelgusi davr uchun prognozlar²¹
(mln. so‘m).

T/ p	Hudud nomi	2024 yil		2024 yil		2025 yil prog- noz	2026 yil prog- noz	2027 yil undiriladigan soliq prognozi
				Mol- mulk solig‘i	Yer solig‘i			
		soni	summa	summa	summa	summa	summa	summa
Respublika bo‘yicha jami		242	233,4	73,5	159,9	323,6	451,7	634,8
1	Qoraqalpog‘iston Res.	11	9,9	3,4	6,4	11,9	14,3	17,1
2	Andijon viloyati	12	7,2	2,3	4,9	9,4	12,2	15,8
3	Buxoro viloyati	23	27,4	7,2	20,2	38,4	53,7	75,2
4	Jizzax viloyati	90	91,3	25,7	65,7	137,0	205,4	308,1
5	Qashqadaryo viloyati	18	15,6	4,2	11,4	18,7	22,5	27,0
6	Navoiy viloyati	10	7,1	2,0	5,1	9,2	12,0	15,6
7	Namangan viloyati	15	7,8	2,4	5,5	10,9	15,3	21,4
8	Samarqand viloyati	5	5,6	1,5	4,1	8,4	12,6	18,9
9	Surxondaryo viloyati	4	2,4	0,9	1,5	2,9	3,5	4,1
10	Sirdaryo viloyati	1	0,9	0,1	0,8	1,2	1,5	2,0
11	Toshkent viloyati	18	21,1	10,8	10,3	29,5	41,4	57,9
12	Farg‘ona viloyati	1	0,8	0,2	0,6	1,2	1,8	2,7
13	Xorazm viloyati	24	23,4	6,0	17,5	28,1	33,7	40,4
14	Toshkent shahri	10	13,0	6,9	6,1	16,9	22,0	28,6

Yuqoridagi 2-jadval ma’lumotlari orqali faqatgina budjet, ayniqsa mahalliy budjet daromadlari bo‘yicha yo‘qotishlar emas balki, 3 yillik soliq imtiyozi berilishi natijasida aholini energiya manbalari bilan yetarlicha ta’minlash va keyinchalik mahalliy budjet daromadlari mustaqilligiga erishish maqsad qilingan. Dastlabki uch yil davomida soliq imtiyozidan foydalangan soliq to‘lovchilardan 2027-yilda 634,8 mln. so‘m mahalliy soliqlar ya’ni mol-mulk va yer solig‘i undirilishi prognoz qilingan.

O‘zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalarini o‘rnatganligi uchun mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha imtiyozga ega bo‘lgan yuridik shaxslar va ularga qo‘llanilgan imtiyoz summalari tarkibini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ushbu tahliliy ma’lumotlarni quyidagi (3-jadval) orqali ko‘rishimiz mumkin.

Quyida keltirilgan 3-jadval ma’lumotlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, tahlil qilinayotgan davrda mamlakat miqyosida qayta tiklanadigan energiya manbalarini o‘rnatganligi uchun mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha imtiyozga ega bo‘lgan yuridik shaxslar 143 tani tashkil etib, umumiy soliq imtiyozi summasi 2 984,3 mln. so‘mni tashkil etgan. Soliq imtiyozi yer solig‘i bo‘yicha 925,2 mln. so‘m (31,0 foiz)ni, mol-mulk solig‘i bo‘yicha esa 2 059,1 mln. so‘m (69,0 foiz)ni tashkil qilmoqda.

²¹ O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida dissertant tomonidan tayyorlangan.

3-jadval

O'zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalarini o'rnatganligi uchun mol-mulk va yer solig'idan imtiyozga ega bo'lgan yuridik shaxslar va ularga qo'llanilgan imtiyoz summalari hamda kelgusi davr uchun prognozlar²² (mln. so'm)

r/p	Hudud nomi	Yuridik shaxslarga		Shundan		2025 yil prognoz	2026 yil prognoz	2027 yil undiriladigan soliq prognozi
				mol-mulk solig'i	Yer solig'i			
		soni	summa	summa	summa	summa	summa	summa
Respublika bo'yicha		151	3 131,7	2140,2	991,5	7174,1	16442,2	37700,6
1	Qoraqalpog'iston Res.	3	38,9	22,4	16,5	89,5	205,8	473,3
2	Andijon	9	446,9	351,2	95,7	983,2	2163,0	4758,6
3	Buxoro	13	210,9	198,4	12,5	506,2	1214,8	2915,5
4	Jizzax	7	98,4	61,1	37,3	226,3	520,5	1197,2
5	Qashqadaryo	5	30,2	29,1	1,1	72,5	174,0	417,5
6	Navoiy	7	33,8	17,8	16	77,7	178,8	411,2
7	Namangan	7	46,7	25,8	20,9	107,4	247,0	568,2
8	Samarqand	2	59,1	41,3	17,8	130,0	286,0	629,3
9	Surxondaryo	3	28,5	17,4	11,1	62,7	137,9	303,5
10	Sirdaryo	2	54,9	13	41,9	126,3	290,4	668,0
11	Toshkent	15	222,7	183,2	39,5	512,2	1178,1	2709,6
12	Farg'ona	5	1,1	1	0,1	2,4	5,3	11,7
13	Xorazm	4	6,8	5,5	1,3	16,3	39,2	94,0
14	Toshkent sh.	60	1 823,0	1150,1	672,9	4192,9	9643,7	22180,4
15	Yirik soliq to'lovchi	9	29,8	22,9	6,9	68,5	157,6	362,6

Yuqoridagi 3-jadvaldan ma'lumki, 2025-yil uchun soliq tushumlari 7 174,1 mln. so'mni, 2026-yil uchun esa 16 442,2 mln. so'mni tashkil etishi kutilmoqda. Bu o'sish (2025 → 2026: 129%) soliq solinadigan bazaning kengayishi, iqtisodiy faollikning oshishi va soliq imtiyozlarining samarali taqdim etilishi bilan bog'liq. 2024-yil ijrosi soliq tushumlarining barqarorligini, 2025-2026 yillar prognozlari esa sezilarli o'sishni ko'rsatadi. 2027-yilda esa soliq tushumlari (37 700,6 mln. so'm) to'liq budjetga yo'naltiriladi, bu esa uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish dasturlarini moliyalashtirish imkoniyatini yaratadi. Soliq imtiyozlari yuridik shaxslarning faolligini oshirishga qaratilgan bo'lib, bu esa kelajakda soliq tushumlarining yanada oshishiga olib keladi.

Umuman olganda O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni soliq imtiyozlari orqali moliyalashtirish, mamlakatning ekologik barqarorligini ta'minlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun samarali vosita bo'lishi mumkin. Soliq imtiyozlari orqali qayta tiklanadigan energiya manbalariga, ekologik toza texnologiyalarga va energiya samaradorligiga sarmoya kiritishni rag'batlantirish, yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini tezlashtirishga yordam beradi. Bu esa nafaqat atrof-muhitni

²² O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida dissertant tomonidan tayyorlangan.

himoya qilish, balki iqtisodiy barqarorlikni oshirish va yangi ish o‘rinlarini yaratishga xizmat qiladi. Yashil iqtisodiyotga qaratilgan soliq imtiyozlari tizimini rivojlantirish, O‘zbekistonda ekologik infrastrukturani yaxshilash va iqtisodiy o‘sishni barqarorlashtirishga olib keladi.

Dunyo amaliyotida xususiy investitsiyalarni “yashil loyihalar”ga jalb etishni rag‘batlantirishning turli usullari va dastaklaridan keng foydalaniladi (4-jadval).

4-jadval.

“Yashil loyihalar”ni moliyalashtirish maqsadida xususiy investorlarni qo‘llab-quvvatlash dastaklari va usullari²³

Qo‘llab-quvvatlash choralari	“Yashil” loyihalarni moliyalashtirish dastaklari va usullari	
Davlat tomonidan tartibga solish	Dastaklari	Soliq imtiyozlari
		Standartlarni joriy etish
		Atrof-muhitga zarar keltiruvchi kompaniyalarni qo‘llab-quvvatlashdan voz kechish
	Usullari	Imtiyozli tariflar
		Tiklanadigan energiya uchun kvotalar
Davlat tomonidan moliyalashtirish	Dastaklari	Grantlar
		Subsidiyalar
		Ekologik dasturlar
Kreditlash	Dastaklari	Loyihaviy moliyalashtirish
		Qarz fondlari
		“Yashil” obligatsiyalar
	Usullari	Imtiyozli kredit stavkalari
Risklarni pasaytirish	Dastaklari	Kredit kafilligi va kafolatlar
		Sug‘urtalash
		Ayirboshlash kursi va foiz stavkasining volatilligidan himoyalash

“Yashil loyihalar”ni investitsiyalashda soliq imtiyozlarini joriy etish emitentlar va investorlar uchun iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan jozibador hisoblanadi. Amaliyotda emitentlar va investorlar uchun qo‘llaniladigan soliq imtiyozlarining quyidagi turlari mavjud:

- soliqqa tortiladigan kreditli obligatsiyalar. Obligatsiyalarning ushbu turi investorlar foiz to‘lovlari o‘rniga soliqqa tortiladigan kredit olishlarini, shu sababdan emitentlar obligatsiyalar bo‘yicha foiz to‘lamasliklarini bildiradi.


- bevosita subsidiyalanadigan obligatsiyalar. Emitentlar o‘z sof foiz to‘lovlarini subsidiyalash uchun hukumatdan pulli chegirmalar olishadi.

- soliqqa tortilmaydigan obligatsiyalar. Investorlar “yashil obligatsiyalar”dan olinadigan foizlardan daromad solig‘i to‘lashmaydi. Misol uchun, Braziliyada shamol energiyasi bo‘yicha loyihalarni moliyalashtirish soliqlardan ozod qilingan.

²³ Establishing China’s Green Financial System: Report of The Green Finance Task Force. People’s Bank of China (PBC). United Nations Environment Programme (UNEP). 2015. URL: <https://www.unepfi.org/news/establishing-chinas-greenfinancial-system-report-of-the-green-finance-task-force>

- davlat tomonidan talabni rag‘batlantirish orqali “yashil obligatsiyalar” bozorini rivojlantirish.

Xalqaro amaliyotdan ma’lumki, “Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish va moliyalashtirishda suveren jamg‘armalar, ya’ni davlatlar tomonidan boshqariladigan investitsiya fondlari, “yashil investitsiyalar”ga qo‘yilgan kapital orqali muhim rol o‘ynamoqda. Suveren jamg‘armalar ushbu sohalarga katta mablag‘larni yo‘naltirib, global barqarorlik maqsadlariga erishishga hissa qo‘shmoqda (5-rasm.)



5-rasm. Xalqaro miqyosda 2017-2023 yillarda suveren jamg‘armalar tomonidan amalga oshirilgan “yashil investitsiyalar” miqdori, mlrd.doll.²⁴

Suveren jamg‘armalar “yashil loyihalar”ni investitsiyalashni moliyalashtirishning istiqbolli manbalaridan biriga aylanishi mumkin. UNEP mutaxassislari fikricha, “yashil loyihalar”ni moliyalashtirish va investitsiyalashni rag‘batlantirish hamda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda suveren jamg‘armalarning potentsial imkoniyatlari yuqori bo‘lsada, ular hali kam o‘rganilgan”. Jumladan, 2015-2017 yillarda suveren jamg‘armalar tomonidan amalga oshirilgan “yashil moliyalashtirish” miqdori 11 mlrd. dollarni tashkil etgan. Ushu “yashil investitsiyalar”ga yo‘naltirilgan mablag‘lar jahon ehtiyojiga nisbatan juda kam bo‘lib, suveren jamg‘armalar jami aktivlarining bor-yo‘g‘i 0,2 foizini tashkil etadi (4-rasm).

Norvegiya, Yangi Zelandiya, Irlandiya, Avstraliya, Fransiya kabi mamlakatlarda tabiatni muhofaza qilishni hisobga oluvchi milliy investitsiya strategiyalari ishlab chiqilgan. Ammo suveren jamg‘armalar strategiyasida asosiy e’tibor “yashil loyihalar”ni bevosita moliyalashtirishga emas, balki issiqxona gazlari emissiyasini qisqartirmayotgan loyihalardan chiqib ketish shaklida amalga oshirilmog‘da.

²⁴ Financing Sustainable Development: The Role of Sovereign Wealth Funds for Green Investment. Geneva, UNEP, 2017. p. 4.

Dissertatsiya ishining uchinchi bobi “O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishni takomillashtirish imkoniyatlari” deb nomlanib, unda O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishni kengaytirishda ilg‘or xorijiy tajribadan foydalanishning ustuvor yo‘nalishlari hamda milliy iqtisodiyotda yashil ishlab chiqarishni rag‘batlantirishning moliyaviy dastaklaridan foydalanish yo‘llari ochib berilgan.

Xalqaro tajribalardan ma‘lumki, yashil iqtisodiyot loyihalarini moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha soliqlar orqali rag‘batlantirish va subsidiyalar ajratish muhim ahamiyat kasb etadi (5-jadval).

5-jadval

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini moliyaviy qo‘llab quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari (O‘zbekiston va xalqaro tajriba)²⁵

Mezonlar	O‘zbekiston	Germaniya	AQSh	Hindiston	Avstraliya
Soliq imtiyozlari	3 yil (akkumulyator bilan 10 yil) mol-mulk va yer solig‘idan ozod; foyda solig‘idan ozod.	QQS 0% (doimiy); foyda solig‘i 30,000 yevro chegarasida ozod.	2032-yilgacha shtatlarda mol-mulk solig‘idan ozod.	Amortizatsiya 40%; QQS 5%.	Kichik bizneslar xarajatlarini to‘liq chegiradi.
Subsidiyalar	1000 so‘m/kWt-soat (soliqsiz);	0.08-0.12 yevro/kWt-soat (1040-1560 so‘m).	shtatga qarab 0.03-0.15 AQSh dollar/kWt-soat (390-1950 so‘m).	5 rupiya /kWt-soat (0.06 AQSh dollari yoki 780 so‘m)	shtatga qarab 0.07-0.15 dollar/kWt-soat (yoki 910-1950 so‘m).
Ortiqcha energiya sotish	1000 so‘m/kWt-soat subsidiya.	“Feed-in tariff” tariflari.	“Net metering” kreditlari.	Belgilangan tariflar.	“Net metering” kreditlari.
Soliq imtiyozi muddatlari	3 yil (akkumulyator bilan 10 yil).	Doimiy (foyda solig‘i chegarali).	2032-yilgacha (keyin pasayadi).	2030-yilgacha.	2030-yilgacha (qayta ko‘rib chiqiladi).
Asosiy maqsadlar	Iqtisodiy: Elektr ta‘minotini yaxshilash, qazilma yoqilg‘i qaramligini kamaytirish	Iqtisodiy: Energiya transformatsiyasi (2035-yilga qadar 80% qayta tiklanuvchi energiya).	Iqtisodiy: Energiya xavfsizligi va sanoat rivojlanishi.	Iqtisodiy: Energiya ta‘minotini kengaytirish.	Iqtisodiy: Elektr narxlarini pasaytirish
	Ekologik: Issiqxona gazlarini kamaytirish	Ekologik: Uglerod emissiyasini kamaytirish	Ekologik: Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash.	Ekologik: Havo ifloslanishini kamaytirish.	Ekologik: Uglerod emissiyasini kamaytirish.
	Ijtimoiy: Aholi farovonligini oshirish, qishloq hududlarini qo‘llab-quvvatlash.	Ijtimoiy: Ish o‘rinlari yaratish.	Ijtimoiy: Mahalliy iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash	Ijtimoiy: Qishloq hududlarida elektrga kirishni oshirish.	Ijtimoiy: Barqaror hayotni rag‘batlantirish.

²⁵ Dissertant tomonidan tayyorlangan

O‘zbekiston boshqa mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o‘rnatgan jismoniy va yuridik shaxslarga rag‘batlantirish uchun soliq imtiyozlari va subsidiyalardan keng foydalanishi maqsadga muvofiq. O‘zbekistonda AQSh va Hindistondagi kabi qisqa muddatli imtiyozlar - 3 yillik soliq imtiyozlaridan foydalanishi lozim. Shuningdek jismoniy va yuridik shaxslar qo‘shimcha xarajat qilganda AQSh (2032-yilgacha) va Hindiston (2030-yilgacha) kabi mamlakatlarning uzoq muddatli rejalashtirishi lozim.

O‘zbekistonda soliq imtiyozlarining muddati uch yil bilan cheklanganligi qonunchilikka asoslanadi. 2020-yil 1-yanvardan boshlab, Soliq kodeksiga muvofiq, imtiyozlar faqat Soliq kodeksi yoki O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan, soliq stavkasini kamaytirish shaklida berilishi mumkin. Bunda soliq stavkasi ko‘pi bilan 50 foizga va ko‘pi bilan uch yil muddatga kamaytirilishi mumkin. Bu cheklovlar imtiyozlarning aniq va cheklangan muddatlarda amal qilishini ta‘minlash maqsadida joriy etilgan.

Shuningdek Quyosh panellari o‘zini qoplash muddati boshlang‘ich xarajatlar (panellarning narxi, o‘rnatish xarajatlari va qo‘shimcha uskunalari (invertor, batareya va h.k.), davlat tomonidan elektr energiyasining narxi qimmatligi, quyosh panellaridan foydalanish muddatining odatda 25-30 yilgacha ekanligi bilan aniqlanadi.

Shu sababli agar davlat yoki mahalliy hukumat yordam bersa, bu muddatni qisqartirishi mumkin. O‘zbekiston sharoitida agar 3 yil ichida soliq imtiyozi berilsa va elektr energiyasi narxi yuqori bo‘lsa, panellar o‘zini 5-7 yil ichida qoplashi mumkin.

100 kVtgacha bo‘lgan quyosh panellari jismoniy shaxslarga (uy egalariga) tavsiya etilishining bir nechta asosiy sabablari bor. Ko‘p davlatlarda 100 kVt va undan kichik tizimlar uchun qulay soliq imtiyozlari, subsidiyalar yoki maxsus tariflar mavjud. Masalan, Avstraliya, AQSh, Yevropa davlatlarida 100 kVtgacha bo‘lgan stansiyalar “Residential” (uy-joy darajasidagi) toifaga kiradi va eng yuqori grant va subsidiyalardan foydalanish imkonini beradi. 100 kVtgacha bo‘lgan tizimlar ko‘pincha maxsus sanoat ruxsatnomalarini talab qilmaydi. Yirik stansiyalarga qo‘shimcha tarmoqqa ulanish talablari (transformator, tarmoq ustuvorligi tahlili va h.k.) qo‘yiladi.

Jismoniy shaxslar (uy egalari) uchun 100 kVt uy xo‘jaligining elektr talabini to‘liq qoplaydi. Ortiqcha energiya elektr tarmog‘iga sotilishi mumkin (Net Metering, Feed-in Tariff dasturlari orqali). 100 kVtgacha bo‘lgan quyosh panellari investitsiyaning tez qoplanishi mumkin. Katta stansiyalarga qaraganda 100 kVt quyosh paneli investitsiyasi tezroq o‘zini qoplaydi (odatda 4-7 yil).

Yirik stansiyalarga mutaxassislik xizmatlari va keng maydon kerak bo‘ladi. 100 kVtgacha bo‘lgan tizimlar uchun uy yoki kichik yer uchastkalari yetarli bo‘ladi. 100 kVtgacha bo‘lgan quyosh panellari uylar, fermer xo‘jaliklari va kichik bizneslar uchun eng samarali va qonuniy jihatdan qulay variant hisoblanadi. Buning asosiy sabablari – imtiyozlar, sodda tarmoqqa ulanish talablari va iqtisodiy jihatdan tez qoplanishidir.

O'zbekistonda quyosh panellarini o'rnatganlarga beriladigan soliq imtiyozlarini jahon tajribasiga mos keltirib subsidiyalarni jismoniy shaxslarni ijtimoiy himoyalash maqsadida 1kVt elektr energiya ishlab chiqarish narxiga nisbatan (2023-yilda 1 kVt·soat elektr energiyasi ishlab chiqarish tannarxi 895 so'mni tashkil etgan) yuqoriroq hamda hisoblash uchun qulay miqdor – 1000 so'm miqdorida belgilash lozim. Bu aholini quyosh panellarini o'rnatishga qiziqtiradi hamda investitsiyalarni qisqa muddatda qoplash imkoniyatini beradi. Albatta aholi o'z iste'molidan ortganini sotishi hisobiga qo'shimcha ishlab chiqarishni qo'llab quvvatlashni rag'batlantirish davlatimiz energiya ishlab chiqarishiga katta xissa qo'shiladi.

Quyosh elektr stansiyalarida ishlab chiqarish tannarxi ancha past bo'lishi mumkin, chunki ular yoqilg'i xarajatlarini talab qilmaydi va ekspluatatsiya xarajatlari nisbatan past. Biroq, aniq raqamlar stansiyaning quvvati, joylashuvi va boshqa omillarga bog'liq. Masalan, Samarqand viloyatidagi 100 MVt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyasi yiliga 260 million kVt·soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi va 79 million kub metr tabiiy gazni tejash imkonini beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining rivojlanishi bilan elektr energiyasi ishlab chiqarish tannarxi pasayib bormoqda, bu esa mamlakat energetika tizimining barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Yuridik shaxslar uchun Germaniya va Janubiy Koreyadagi kabi birja narxlari bilan bog'lash maqsadga muvofiq.

Jahon mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, uzoq muddatli imtiyozlar va kengroq subsidiyalar quyosh energiyasidan foydalanishni yanada jadallashtiradi. O'zbekiston bu tajribalarni qo'llash orqali nafaqat energiya xavfsizligini ta'minlashi, balki atrof-muhitni muhofaza qilish va iqtisodiy barqarorlikka erishishi mumkin.

Yashil ishlab chiqarishni rivojlantirishda soliq dastaklaridan foydalanishning asosiy yo'nalishlar va chora-tadbirlari sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

1. Yashil ishlab chiqarish uchun soliq imtiyozlarini joriy etish. Bunda korxonalariga soliq yengilliklari taqdim etish zarur. Yashil texnologiyalarni xarid qilishda QQSdan ozod qilish, energiya samarador uskunalarni ishlab chiqaruvchi korxonalariga soliq stavkalarini kamaytirish maqsadga muvofiq. Investitsiyalarni rag'batlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Yashil loyihalarga kiritilgan investitsiyalardan foyda solig'idan 5 yil davomida ozod qilishni tavsiya etish mumkin. Kichik va o'rta biznes uchun yashil texnologiyalarni joriy etishga imtiyozli kreditlar va grantlar ajratish lozim.

2. "Ifloslantiruvchi to'laydi" tamoyilini joriy qilish. Atrof-muhitni ifloslantiruvchi korxonalariga qo'shimcha soliq stavkalarini joriy etish imkoniyatlarini ko'rib chiqish zarur. Uglerod chiqindilarini kamaytirish uchun uglerod solig'ini joriy etish, haddan tashqari ko'p chiqindi chiqaruvchi korxonalariga jarimalarni oshirish lozim. Uglerod bozorini rivojlantirish sohasida esa chiqindilar savdosi tizimini tashkil qilish va bu borada xalqaro hamkorlikni kengaytirish.

3. Yashil energiyani rag'batlantirish. Ushbu sohada qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish zarur. Quyosh va shamol energiyasi uskunalari

ishlab chiqarish va sotishdan olingan foyda solig'idan ozod qilishni ko'rib chiqish lozim. Yashil energiya ishlab chiqaruvchilarga tariflarni subsidiya qilish imkoniyatlarini tadqiq etish zarur. Korxonalarda energiyani tejashni rag'batlantirishda esa energiya samarador texnologiyalarni joriy qilgan korxonalarni soliq yengilliklari bilan taqdirlash zarur.

4. Tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash. Yashil mahsulotlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirishda yashil sertifikatlariga ega mahsulotlar uchun QQSni kamaytirish maqsadga muvofiq. Ekologik toza mahsulotlar eksportini soliqlardan ozod qilish lozim. Sertifikatlash tizimini joriy etish sohasida korxonalariga "yashil" sertifikat olishda yordam ko'rsatish va buning uchun soliq imtiyozlarini taqdim etish zarur.

5. Soliq nazoratini avtomatlashtirish va shaffoflikni oshirish. Raqamli texnologiyalarni joriy etish sohasida soliq jarayonlarini raqamlashtirish va yashil iqtisodiyotga oid operatsiyalarni onlayn kuzatib borish imkoniyatini kengaytirish zarur. Shaffoflikni ta'minlash maqsadida soliq tushumlari va ularning yashil loyihalarga yo'naltirilishi bo'yicha ochiq ma'lumotlar bazasini yaratish lozim.

"Yashil" iqtisodiyotni ilgari surish va "yashil" o'sish tamoyillarini joriy etish, iqtisodiyot tarmoqlarida issiqxona gazlari tashlanmalarini qisqartirishga doir faoliyatni muvofiqlashtirishda iqtisodiyot va moliya kompleksi ijro organlari faolligini oshirish darkor. Energetika sohasidagi mas'ul markaziy davlat organi esa «yashil» energetikani rivojlantirish, xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va vodorod energetikasini keng joriy qilish, shuningdek, energiya samaradorligini oshirish va ishlab chiqarilgan mahsulotlarning energiya sig'imini kamaytirish bo'yicha samarali ish faoliyatini tashkil etishi zarur.

XULOSA

Dissertatsiya ishi oldiga qo'yilgan maqsad vazifalarning bajarilishi, amalga oshirilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi:

1. Moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish yo'nalishida yashil obligatsiyalarni chiqarish lozim. Xalqaro tajribaga asoslanib, yashil obligatsiyalarni mahalliy va xalqaro investorlarga taklif qilish maqsadga muvofiq. Yashil kreditlash dasturlarini kengaytirish, tijorat banklarida yashil loyihalar uchun past foizli kredit liniyalarini joriy etish zarur. Moliyaviy subvensiyalar va grantlar. Yashil texnologiyalarni joriy etayotgan korxonalar uchun davlat subvensiyalari va grantlarini oshirish.

2. Budjet kodeksiga yashil moliyalashtirish, yashil budjetlashtirish, yashil audit, yashil markirovkalash tushunchalarini, Soliq kodeksiga esa yashil soliq tushunchasini kiritish maqsadga muvofiqdir. Energetika sohasida esa qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan elektr energiyasi ishlab chiqaruvchilar va ularning xaridorlarini ro'yxatdan o'tkazish, "yashil moliyalashtirish" mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etish va "yashil energiya" sertifikatlarini muomalaga chiqarish, ularning savdosini onlayn platforma orqali amalga oshirish lozim.

3. Regulyativ va institutsional asoslarni rivojlantirish yo‘nalishida yashil iqtisodiyot to‘g‘risidagi qonunchilikni kuchaytirish lozim. Tabiiy resurslarni samarali boshqarish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha aniq normalar ishlab chiqish zarur. Milliy yashil iqtisodiyot jamg‘armasi tashkil etish maqsadga muvofiq. Ushbu jamg‘arma davlat va xususiy sektor resurslarini jalb qilishda vositachi bo‘lib xizmat qiladi.

4. Xususiy sektorni jalb qilish yuzasidan esa investitsiyalar uchun soliq imtiyozlarini joriy etish, yashil texnologiyalarni joriy qiluvchi korxonalar uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish tavsiya etiladi. Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha strategik loyihalarda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

5. Xalqaro moliyaviy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha islohotlarni faollashtirish lozim. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish, BMT, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va Yevropa Ittifoqi kabi tashkilotlarning moliyaviy dasturlaridan faol foydalanish maqsadga muvofiq. Texnologiya transferini tashkil qilish, yashil texnologiyalarni jalb qilish uchun xalqaro grant va kreditlarni yo‘naltirish.

6. Barqaror infratuzilmani rivojlantirish yo‘nalishida Yenilangan energiya manbalariga investitsiyalar. Quyosh, shamol va gidroenergetika manbalariga mablag‘ yo‘naltirish. Chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirish. Qayta ishlangan materiallar asosida yangi mahsulotlar ishlab chiqarish uchun moliyaviy rag‘batlar yaratish. 2040-yilgacha O‘zbekistonda karbon neytrallikka erishish uchun barqaror moliyaviy mexanizmlarni to‘liq yo‘lga qo‘yish lozim.

7. Yashil moliyalashtirishning muhim rag‘batlantiruvchi omili bu soliq instrumenti hisoblanadi. Yashil soliqlar yoki ekologik soliqlar atrof-muhitning buzilishi yoki zararlanishiga sabab bo‘luvchi faoliyat uchun olinadigan yig‘imlardir. Ushbu soliqlar "Ifloslovchi to‘laydi" tamoyiliga asoslanadi, bunda ifloslanish uchun mas‘ul bo‘lgan tashkilotlar tegishli xarajatlarni o‘z zimmalariga oladilar va shu bilan bu xarajatlarni o‘zlarining tovarlari va xizmatlari narxlariga kiritadilar.

8. “Yashil iqtisodiyot”ni ilgari surish va “yashil o‘shish” tamoyillarini joriy etish, iqtisodiyot tarmoqlarida issiqxona gazlari tashlanmalarini qisqartirishga doir faoliyatni muvofiqlashtirishda iqtisodiyot va moliya kompleksi ijro organlari faolligini oshirish darkor. Energetika sohasidagi mas‘ul markaziy davlat organi esa “yashil energetika”ni rivojlantirish, xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va vodorod energetikasini keng joriy qilish, shuningdek, energiya samaradorligini oshirish va ishlab chiqarilgan mahsulotlarning energiya sig‘imini kamaytirish bo‘yicha samarali ish faoliyatini tashkil etishi zarur.

9. Yashil iqtisodiyotga investitsiya resurslarini jalb qilish yo‘nalishlarini aniqlashtirishda barcha issiqxona gazlarini qamrab oluvchi Iqlim o‘zgarishi sohasida monitoring, hisobot berish va tekshirishning zamonaviy tizimi (MRV) yo‘lga qo‘yila boshlandi. Bunda iqtisodiyot tarmoqlarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini rejalashtirish va amalga oshirishdan oldingi bosqichlarda ularning issiqxona gazi hajmini qisqartirish imkoniyati baholanib, loyihalar

natijasida qisqartirilgan issiqxona gazi hajmi sertifikatlashtirishga va tashqi bozorlarga yoʻnaltirishga alohida eʼtibor qaralish lozim.

10. Milliy iqtisodiyotda vakolatli markaziy davlat organlari xalqaro tashkilotlar, hususan Jahon banki bilan hamkorlikda Milliy iqlim va rivojlanish hisoboti (Country Climate and Development Report — CCDR) ishlab chiqish jarayonlarini takomillashtirishi hamda hisobotda keltirilgan tahlillardan kelib chiqib, tegishli vazirliklar va idoralarga koʻrsatma va tavsiyalar yuborilishi maqsadga muvofiqdir.

11. Xorijiy mamlakatlar tajribasi, hususan Germaniya va Janubiy Koreya yashil moliyalashtirishni yaxshilash tajribasidan Oʻzbekistonda yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishni takomillashtirishda milliy qonunchilikni moslashtirib borish zarur, bunda yashil obligatsiyalar bozorini yaratish uchun xalqaro standartlarga mos qonunchilik bazasini shakllantirish, davlat kafolatlari va ishonchni oshirish lozim. Bu jarayonda moliya bozorida investorlarni jalb qilish uchun davlatning ishonchli kafolati talab qilinadi. Iqtisodiy munosabatlarda shaffoflikni taʼminlash zarur. Yashil obligatsiyalar boʻyicha moliyalashtirilayotgan loyihalar haqida muntazam va shaffof hisobotlar berilishi kerak.

12. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarur. Sohada katta tajribaga ega mamlakatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish Oʻzbekiston yashil obligatsiyalar bozorining jadal rivojlanishiga yordam beradi. Yashil obligatsiyalar bozoridagi muvaffaqiyati barqaror rivojlanish maqsadlarini moliyalashtirishda ushbu moliyaviy vositaning qanchalik samarali ekanligini koʻrsatadi. Oʻzbekiston bu tajribadan foydalangan holda mahalliy yashil obligatsiyalar bozorini yaratishi, davlat va xususiy sektor oʻrtasida hamkorlikni kuchaytirishi, xalqaro moliyaviy institutlar bilan yaqin aloqalarni rivojlantirishi lozim.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.22\29.12.2023.I.175.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
ТАШКЕНТСКОМ МЕЖДУНАРОДНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**УНИВЕРСИТЕТ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

УСМОНОВ ШАВКАТЖОН ШУКУРОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРАКТИКИ ФИНАНСИРОВАНИЯ
ПРОЕКТОВ ЗЕЛеной ЭКОНОМИКИ**

08.00.07 – Финансы, денежное обращение и кредит

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) по экономическим наукам

город Ташкент – 2025 год

Тема диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) зарегистрирована Высшей национальной комиссией под номером B2024.2.PhD/Iqt4141

Диссертация выполнена в Университете общественной безопасности Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации на трех языках (русский, узбекский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tiu.uz) и информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: Бозоров Акмал Амонович
доктор экономических наук, доцент

Официальные оппоненты: Юлдашев Обиддин Тошмурзаевич
доктор экономических наук, доцент
Хусайнов Шавкат Абдушукурович
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация: Академия государственного управления при Президенте Республики Узбекистан

Защита диссертации состоится «23» 05 2025 года в 10⁰⁰ на заседании научного совета DSc.22\29.12.2023.I.175.01 по присуждению ученых степеней при Ташкентском международном университете. Адрес: 100114, г.Ташкент, Малая кольцевая дорога, 7. Тел.: (99895) 131-55-55. Факс : (99895) 131-55-55, e-mail: tdiu@tiu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского международного университета (зарегистрировано № 54). Адрес: 100114, г.Ташкент, Малая кольцевая дорога, 7. Тел.: (99895) 131-55-55. Факс : (99895) 131-55-55, e-mail: tdiu@tiu.uz.

Автореферат диссертации разослан «28» 04 2025 года.
(протокол реестра № 12 от «15» 03 2025 года).



Н.Х. Жумаев

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

А.Т. Абсаламов

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, доцент

Д.А. Рахмонов

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Во многих странах мира развитию и финансированию зеленой экономики уделяется особое внимание. “В Индексе перехода к зеленой экономике (Global Green Economy Index-GGEI) оценивается эффективность зеленой экономики во всем мире. При оценке данного индекса используются такие критерии, как управление и изменение климата, эффективность секторов, рынок и инвестиции, а также окружающая среда по четырем основным направлениям. В 2023 году 154 страны имели индекс зеленой экономики, включая 41 страну из Африки, 44 из Азии и 39 из Европы. Европейские страны имеют средний индекс в диапазоне 60-80 баллов по континентам, в то время как страны Азии и Африки имеют индекс в диапазоне 20-40 баллов. В индексе перехода к зеленой экономике Швейцария набрала 77,14 балла, Германия - 74,7 балла, Франция - 68,69 балла, Китай - 68,12 балла, Сингапур - 51,83 балла, Россия - 60,19 балла, Кыргызстан - 55,43 балла, Казахстан - 54,78 балла, Таджикистан - 51,54 балла и Узбекистан - 38,66 балла”²⁶. “Страны с высоким индексом зеленой экономики широко используют различные финансовые и фискальные механизмы для стимулирования использования возобновляемых источников энергии, сокращения выбросов парниковых газов и снижения выбросов углерода. В основном включает в себя такие механизмы, как тарифы, гранты, субсидии, кредиты и зеленое налогообложение в качестве фискального и финансового стимулирования”²⁷.

В мировой практике уделяется внимание научным исследованиям, направленным на развитие инициатив устойчивого и зеленого финансирования, восполнение инвестиционного пробела и финансирование, необходимого для решения проблем, связанных с изменением климата, зеленой энергетикой, экологическими проектами. Проводятся научные исследования по таким направлениям, как эффективное использование возобновляемых источников энергии при переходе к зеленой экономике, привлечение инвестиций в развитие энергосберегающих технологий и стимулирование механизма финансирования зеленой экономики, а также изучение экономического и экологического воздействия зеленой налоговой политики в области стимулирования и поддержки зеленой экономики посредством налоговых льгот, повышение эффективности налоговых механизмов для перехода к зеленой экономике на уровне стран и регионов.

В результате использования углеводородных энергетических ресурсов (нефть, газ, уголь) в Новом Узбекистане ежегодно теряется около 4,5% ВВП. “Кроме того, почти половина мощностей по производству энергоресурсов устарела, и их модернизация требует значительных средств”²⁸. Эксперты оценивают, что за счет альтернативной энергии Узбекистан сможет покрыть

²⁶ <https://ggindex-simtool.gggi.org/>

²⁷ PBL_2013-Environmental-taxes-and-Green-Growth_1009.pdf

²⁸ Абдурахманов К.Х. Искусственный интеллект – основа устойчивого развития экономики.-Москва: ФГБОУ ВО «РЭУ им.Г.В.Плеханова», 2023.-432 с.

выработку энергии и удовлетворить спрос. Исходя из стратегии “Узбекистан - 2030,” целью является проведение средне-и долгосрочной фискальной политики, адаптируемой к внешним и внутренним воздействиям, для обеспечения долгосрочного устойчивого экономического роста”²⁹. В целях ускорения реформ по финансированию ЦУР и поддержке "зеленых" проектов, в рамках реформ "зеленого" бюджетирования одной из приоритетных задач является полное внедрение модели классификации климатического бюджета, совершенствование методологии и механизма классификации расходов на основе принципов "зеленого" бюджетирования, классификация расходов на основе принципов "зеленого" бюджетирования, автоматизация и интеграция процессов "зеленой" классификации бюджета в программное обеспечение, поддержка государством устойчивого роста "зеленой" экономики посредством фискальной политики, разработка механизмов зеленого налогообложения и его реализации. Выполнение этих задач указывает на необходимость совершенствования механизма финансирования зеленых проектов.

В реализации задач, установленных в нормативно-правовых актах, таких как Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № ПФ-158 «О Стратегии “Узбекистан–2030”», Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», Указ Президента Республики Узбекистан от 30 января 2025 года № ПФ-16 «О Государственной программе по реализации Стратегии “Узбекистан–2030” в “Год охраны окружающей среды и развития “зелёной” экономики»», Постановление Президента Республики Узбекистан от 4 октября 2019 года № ПҚ-4477 «Об утверждении Стратегии перехода Республики Узбекистан к “зелёной” экономике в 2019–2030 годах», Указ Президента Республики Узбекистан от 9 сентября 2022 года № ПФ-220 «О дополнительных мерах по внедрению энергосберегающих технологий и развитию маломощных возобновляемых источников энергии», Постановление Президента Республики Узбекистан от 2 декабря 2022 года № ПҚ-436 «О мерах по повышению эффективности реформ, направленных на переход Республики Узбекистан к “зелёной” экономике до 2030 года», а также в других нормативно-правовых документах, связанных с данной сферой, данное диссертационное исследование в определённой степени служит выполнению поставленных задач.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. "Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики."

Степень изученности проблемы. Теоретические основы зеленой экономики и проблемы, связанные с механизмом финансирования,

²⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrda gi «O‘zbekiston — 2030 strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-158-son Farmoni

исследованы в научных работах зарубежных ученых-экономистов С.Adolf, N.Bogovic, R.Karri, B.Özkaynak, Friesenbichler, A.C. Pigou, M.Cardona³⁰, индийских ученых Verma и Kandpal³¹, иранского экономиста профессора Mohammad Hadi Dehghani³².
